

TASDIQLAYMAN:

«Dehqonobod kaliy zavodi» AJ
Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari v.v.b

 T. Zaripov

«15» 06 2022 y.

«Dehqonobod kaliy zavodi» aksiyadorlik jamiyatining
qayta ishlash majmuasidagi gaz yoqilg'isi bilan ishlaydigan
qurilmalarning gaz/havo nisbati bilan olov hosil qilish tizimini va avtomatik boshqaruv
tizimini rejimli sozlash xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotni tanlash bo'yicha

Texnik topshiriq

Dehqonobod – 2022 y.

MUNDARIJA:

1	BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING NOMLANISHI HAMDA FOYDALANISH MAQSADI	3
2	ISHLAR, XIZMATLARNING RO'YXATI VA ULARNING HAJMI (MIQDORI)	3
3	BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING SHARTI	3
4	BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING MANZILI (JOYI)	4
5	BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING NARXI VA TO'LOVLARNI AMALGA OSHIRISH SHARTLARI	4
6	BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING MURAKKABLIGINI INOBATGA OLGAN HOLDA ISHTIROKCHILARGA QO'YILADIGAN TALABLAR	4
7	ISHLARNI BAJARISH VA XIZMATLARNI KO'RSATISH MUDDATI (DAVRI)	5
8	ISHLAR VA XIZMATLARNING NATIJALARINI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI	5
9	ISHLAR VA XIZMATLARNING SIFATIGA KAFOLAT BO'YICHA TALABLAR	6
10	ISHLARNI BAJARISH VA XIZMATLARNI KO'RSATISHGA QO'YILADIGAN QO'SHIMCHA TALABLAR	6
11	QABUL QILINGAN QISQARTIRISHLAR RO'YXATI	6
12	ILOVALAR RO'YXATI	6

1 BO'LIM. BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING NOMLANISHI HAMDA FOYDALANISH MAQSADI

«Dehqonobod kaliy zavodi» aktsiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda – buyurtmachi)ning, qayta ishlash majmuasidagi gaz yoqilg'isi bilan ishlaydigan qurilmalarning gaz/havo nisbati bilan olov hosil qilish va avtomatik boshqaruv tizimini rejimli sozlash xizmatini ko'rsatish

2 BO'LIM. ISHLAR, XIZMATLARNING RO'YXATI VA ULARNING HAJMI (MIQDORI)

Xizmatni ko'rsatuvchi buyurtmachi tomonidan ishlab chiqilgan ushbu texnik topshiriqda ko'rsatilgan qo'yidagi xizmatlarni sifatli va kafolatlangan holda bajarilishini ta'minlaydi.

- 4 dona WNS 2,8-0,7/95/70-Y,Q markali suv isitish qozonidagi (quvvati 2,408 Gkall/s) gaz/havo nisbati bilan olov hosil qilish va avtomatik boshqaruv tizimini rejimli sozlash;
- 2 dona WNS 1-0,7 Y,Q markali bug' qozonidagi (quvvati $Q=1\text{tn/s}$ (0,5 Gkall/s)) gaz/havo nisbati bilan olov hosil qilish va avtomatik boshqaruv tizimini rejimli sozlash;
- Poz. D0701 quritish barabanning DRFLU(Q)-380 markali quritish pechidagi (quvvati 0,82-3,9 Gkall/s) gaz/havo nisbati bilan olov hosil qilish va avtomatik boshqaruv tizimini rejimli sozlash;
- Poz. D2701 quritish barabanning DRFLU(Q)-900 markali quritish pechidagi (quvvati 1,72-8,2 Gkall/s) gaz/havo nisbati bilan olov hosil qilish va avtomatik boshqaruv tizimini rejimli sozlash.

3 BO'LIM. BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING SHARTI

Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot ushbu texnik topshiriqda ko'rsatilgan xizmatlarni bajarish bo'yicha o'zining smeta hujjatlarini ishlab chiqishi uchun buyurtmachining manziliga tashrif buyurib gaz yoqilg'isi bilan ishlaydigan qurilmalar bilan yaqindan tanishishlari mumkin.

Rejimli sozlash xizmatini (RSI)ko'rsatuvchi tashkilotni tanlash bo'yicha o'tkazilgan tanlovning g'olibi va buyurtmachi o'rtasida shartnoma rasmiylashtirilgandan keyin xizmat ko'rsatuvchi buyurtmachi bilan kelishilgan holda texnik topshiriqda ko'rsatilgan qurilmalarda rejimli sozlash ishlarini bajarish bo'yicha rejali grafik ishlab chiqish-talab qilinadi.

RSI amalga oshirish jarayonida xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha javobgarlik xizmat ko'rsatuvchining tegishli vakiliga yuklatiladi va uning rahbarligi ostida buyurtmachining qurilmani boshqaruvchi xodimlar tomonidan texnologik qurilmalarni qo'shish - o'chirish ishlari amalga oshiriladi.

Gaz yoqilg'isi bilan ishlaydigan qurilmalarda quyidagi RSI amalga oshiriladi:

- gazdan foydalanish uskunasini issiqlik texnikasi (rejim) jihatidan sozlash;
- yonish jarayonini nazorat qilish va avtomatik tarzda tartibga solish vositalarini sozlash;
- gazdan foydalanish uskunasi havfsizligining avtomatika vositalarini sozlash;
- issiqlikni utilizatsiya qiladigan va yordamchi uskunalarni sozlash;
- suvni tayyorlash tizimlarini sozlash;

RSI olib borish jarayonida aniqlangan nuqsonlar to'g'risida buyurtmachiga yozma taqdimnoma kiritish va ularning bartaraf etilgandan keyin bajarilgan ishlar bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtirilishi zarur.

Xizmat ko'rsatuvchidan grafik bo'yicha RSI amalga oshirilgandan so'ng qurilmalarini sinov tariqasida ishga tushirishdan oldin elektr jihozlari, nazorat o'lchov asboblari, gaz tizimi, suv ta'minoti va boshqa ishga tushirish tizimlarini tekshirib ko'rish buyurtmachining tegishli vakillari ishtirokida amalga oshirish talab qilinadi.

Xizmat ko'rsatuvchi tomonidan RSI amalga oshirilgan qurilmalarni 72 soat mobaynida to'liq ishlatib sinovdan o'tkazish va ushbu qurilmalar uchun gazdan foydalanish bo'yicha rejimli kartani 5 ish kuni mobaynida ishlab chiqib buyurtmachiga taqdim qilish talab etiladi.

Rejimli karta bilan qurilmani ekspluatatsiya qiluvchi xodimlarini tanishtirish, karta asosida ishlash bo'yicha yo'riqdan o'tkazish.

Gaz qurilmalarida olib borilgan «Rejimli-sozlash» bo'yicha texnik hisobotlarni to'liqligicha tayyorlash, buyurtmachiga taqdim etish.

4 BO'LIM. BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING MANZILI (JOYI)

O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani Beshbuloq shaharchasida joylashgan «Dehqonobod kaliy zavodi» aksionerlik jamiyatining («DKZ» AJmanzili bo'yicha ko'rsatiladi.

5 BO'LIM. BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING NARXI VA TO'LOVLARNI AMALGA OSHIRISH SHARTLARI

Xizmat ko'rsatuvchi qurilmalarda RSI ni olib borayotgan vaqtda zarur bo'ladigan ayrim ehtiyot qismlar ro'yxati buyurtmachiga kelishish uchun taqdim qilinadi.

Xizmat ko'rsatuvchiga shartnoma imzolangandan keyin ishlarni tashkillashtirish va ishni boshlashi uchun shartnoma summasining 15% miqdorida bo'nak to'lanadi.

Bajarilgan ishlar uchun to'lovlar, RSI ning bajarilganligini (xizmatlarni ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi barcha hujjatlar buyurtmachiga taqdim qilingandan so'ng 10 (o'n) bank kuni ichida amalga oshirilishi zarur, lekin bu muddat 15 (o'n besh) kalendar kunidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

6 BO'LIM. BAJARILADIGAN ISHLAR VA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING MURAKKABLIGINI INOBATGA OLGAN HOLDA ISHTIROKCHILARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Buyurtmachiga qo'yiladigan talablar:

- ish sharoiti va qurilmalarni o'rganish uchun ish bajaruvchini jamiyat hududiga kirishini tashkillashtirish
- ish bajaruvchi talabiga ko'ra zaruriy texnik hujjatlarni taqdim qilish
- Ish bajaruvchini kirish va ish joyi yo'rigi'dan o'tkazish, xavfsiz ish sharoitini yaratib berish
- topshiriq-ruxsatnoma berish, qurilmalarni rejimli sozlash ishlarini bajarishda qo'shib-
o'chirishda malakali xodimlar bilan ta'minlash
- ish bajaruvchi tomonidan berilgan kamchilik va nuqsonlarni belgilangan muddatlarda bartaraf etish

- ish bajaruvchiga rejimli-sozlash ishlarini bajarish uchun «Sanoatgeokontexnazorat» DI va va «O'zneftgazinspektsiya» hududiy bo'limidan ruxsatnoma olib berish
- bajarilgan ishlarining sifatini tekshirish uchun «O'zneftgazinspektsiya» hududiy bo'limi xodimlarini ishtirokini ta'minlash
- bajarilgan ishlar dalolatnomasini ish bajaruvchi bilan rasmiylashtirish, “Texnik hisobot” va “Rejim kartasi”ni qabul qilish

Ish bajaruvchi (pudratchi) ga qo'yiladigan talablar:

- jamiyatning ichki mehnat tartib qoidalari hamda mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi qoidalariga amal qilish
- ish bajaruvchi korxonaning nizomi, ish tajribasi va moliyaviy harakatlar to'g'risidagi ma'lumotlar, ishni bajaruvchi xodimlarning guvohnomalari, ishni bajarishda qo'llaniladigan asboblarning tegishli ishni bajarishga ruxsatnomasi borligi va standartdan o'tkazilganligi to'g'risidagi sertifikatlarini taqdim etish
- gaz yoqilg'isida ishlovchi qurilmalarni o'rganish, rejimli sozlash ishlarini bajarishda qurilmada mavjud kamchiliklar to'g'risida yozma taqdimnoma berish va bartaraf etilgan kamchiliklar dalolatnomasini buyurtmachi bilan birgalikda rasmiylashtirish
- RSI ni bajarish, “Texnik hisobot” va vaqtinchalik “Rejim karta”sini lotin yozuviga asoslangan o'zbek tilida har bir qurilma uchun alohida 2 nusxada tuzish va Buyurtmachi taqdim qilish
- bajarilgan ishlar sifatini «O'zneftgazinspektsiya» hududiy bo'limi **mutaxasisi** bilan birgalikda tekshirish, dalolatnoma rasmiylashtirish va Buyurtmachiga taqdim etish
- bajarilgan ishlar hajmi bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtirish, xavfsizlik dalolatnomasini taqdim etish

7 BO'LIM. ISHLARNI BAJARISH VA XIZMATLARNI KO'RSATISH MUDDATI (DAVRI)

Xizmatni ko'rsatish muddati – 2022 yilning 3-choragi (kelishuvga asosan).
«Dehqonobod kaliy zavodi» aktsiyadorlik jamiyatining qayta ishlash majmuasidagi gaz yoqilg'isi bilan ishlaydigan qurilmalarning gaz/havo nisbati bilan olov hosil qilish va avtomatik boshqaruv tizimini rejimli sozlash xizmatlari buyurtmachi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilot o'rtasida o'rnatilgan tartibda shartnoma imzolanganidan keyin amalga oshiriladi.

8 BO'LIM. ISHLAR VA XIZMATLARNING NATIJALARINI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI

RSI ni olib borish jarayonida aniqlangan nuqsonlar va ularning bartaraf etilganligi to'g'risida buyurtmachining tegishli vakillari ishtirokida bajarilgan ishlar bo'yicha tuzilgan dalolatnoma hamda «Rejimli-sozlash» bo'yicha texnik hisobotlarni to'liqligicha tayyorlab buyurtmachiga taqdim qiladi.

Hisobot davri bo'yicha buyurtmachi va ishlarni (xizmatlarni) ko'rsatuvchi tashkilot rahbariyati tomonidan dalolatnoma rasmiylashtirilib imzolanganidan so'ng ishlar to'liq bajarilgan hisoblanadi va to'lov uchun hisob-faktura yoziladi.

9 BO'LIM. ISHLAR VA XIZMATLARNING HAJMIGA (MIQDORIGA) KAFOLAT BO'YICHA TALABLAR

Xizmat ko'rsatuvchi gaz yoqilg'isi bilan ishlaydigan qurilmalarning gaz/havo nisbati bilan olov hosil qilish va avtomatik boshqaruv tizimini rejimli sozlash xizmatlarini sifatli bajarilganligiga 12 oydan kam bo'lmagan muddatga kafolat berishi zarur.

Kafolat muddati qo'yidagi hollarda istisno qilinadi:

- gazdan foydalanish uskunasi mukammal yoki rejadan tashqari ta'mirlanganda, qurilmaning detallarida emirilish yoki ishdan chiqish holatlari yuzaga kelsa;
- gazdan foydalanish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadigan konstruktiv o'zgarishlar kiritilgansa;
- foydalanilayotgan yoqilg'ining turi va tavsiflari o'zgartirilganda.

10 BO'LIM. ISHLARNI BAJARISH VA XIZMATLARNI KO'RSATISHGA QO'YILADIGAN QO'SHIMCHA TALABLAR

Belgilangan kafolat muddatigacha bajarilgan ishlarning sifatsiz chiqishi (9-bo'limda ko'rsatilgan holatlardan tashqari), qurilmalarning samaradorligi va texnik holatidagi salbiy holatlar va moliyaviy zararlar uchun javobgarlik xizmat ko'rsatuvchi tashkilot zimmasiga yuklatiladi.

Ushbu texnik topshiriqda ko'rsatilgan RSI ni bajarishi (xizmatlarni ko'rsatishi) mumkin bo'lgan potentsial tashkilotlarga mazkur ishlarni bajarish bo'yicha tanlov boshlanguniga qadar buyurtmachining ob'ektlariga tashrif buyurishi, ish hajmi va ishlarni bajarish shart-sharoitlari bilan joyida tanishishi uchun imkoniyat yaratib beriladi.

11 BO'LIM. QABUL QILINGAN QISQARTIRISHLAR RO'YXATI

T/r	Qisqartma	Qisqartmaning to'liq yoyilmasi
1	RSI	Rejimli sozlash ishlari
2	“DKZ” AJ	«Dehqonobod kaliy zavodi» aksiyadorlik jamiyati

12 BO'LIM. ILOVALAR RO'YXATI

№	Ilova nomlanishi	Varaqlar soni	Izoh
1	Rejimli sozlash ishlari bajariladigan qurilmalarining texnik parametrlari	2	
2	RSI bajariladigan qurilmalarning texnik pasportlari		Pasportlar shartnoma imzolanganidan keyin taqdim etiladi

Ishlab chiqdi:

Issiqlik-gaz ta'minoti sexi boshlig'i
KICH sexi boshlig'i

I. Jabborov
B. Raxmatov

Kelishildi:

Bosh energetik

E. Yadgarov

Bosh metrolog

I. Abdullaev

SR va BRB boshlig'i

S. Xolto'raev

TXT va RMB boshlig'i

A. Ashurov

“DKZ” AJ dagi gaz yoqilg’isida ishlaydigan qurilmalarning texnik ko’rsatkichlari			
1	Suv isitish qozonlari	soni	4 dona
1. Umumiy ma’lumotlar			
Ishlab chiqaruvchining nomi va manzili		Xitoy XR Yangzhou Chenzhuan Special Equipment Co., Ltd.	
Ishlab chiqarilgan yili		2009y, 2012y	
Turi (model)		WNS2,8-0,7/95/70-Y,Q	
Nomi va qo’llanish maqsadi		Texnologik ehtiyojlar va isitish uchun issiq suv tayyorlash uchun mo’ljallangan suv isitish qozoni	
Gaz gorelkasining markasi		RIELLO RS100 822 T1 (Italiya) -2 dona Weishaupt G11/1-D (Germaniya) -2 dona	
Hisoblangan xizmat muddati, yillar.		20	
2. Texnik xarakteristika va parametrlari			
Yoqilg’i turi		metan	
Boshlang’ich yoqilg’i va uning kaloriyasi qiymati, MJ/kg (kkal/m ³)		8200	
Nominal bosimi, MPa (kgf / sm ²)		0,7 (7,0)	
Issiq suvning taxminiy harorati, °C		95	
Issiqlik chiqishi, MVt		2,8 (2,408 Gkall/s)	
Qozon isitish yuzasi, m ²		88,8	
Qozon hajmi, m ³		5,77	
Qozonning og’irligi, kg		9221	
Uzunlik, mm		6000	
Kengligi, mm		2800	
Balandligi, mm		3400	
samaradorlik		91%	
Gaz iste’moli (Nm ³ /soat)		296	
2	Bug’ qozonlari	Soni -2 dona	
1. Umumiy ma’lumotlar			
Ishlab chiqaruvchining nomi va manzili		Xitoy XR Yangzhou Chenzhuan Special Equipment Co., Ltd.	
Ishlab chiqarilgan yili		2012 y	
Turi (model)		WNS 1-0,7 Y,Q	
Ishlatilish sohasi		Texnologik ehtiyojlar uchun bug 'ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan bug' qozoni	
Gaz gorelkasining markasi		RIELLO GAS 9 P/M 540 T1 (Italiya)-2 dona	
Hisoblangan xizmat muddati, yillar.		20	
2. Texnik xarakteristika va parametrlari			
Yoqilg’i turi		metan	
Boshlang’ich yoqilg’i va uning kaloriyasi qiymati, MJ/kg (kkal/m ³)		8200	

Nominal bosimi, MPa (kgf / sm ²)	0,7 (7,0)
Bug'ning taxminiy harorati, °C	170
Bug 'sig'imi, kg/soat	1000
Qozon isitish yuzasi, m ²	24,9
Qozon hajmi, m ³	3,1
Qozonning og'irligi, kg	4882
Uzunlik, mm	3690
Kengligi, mm	2050
Balandligi, mm	1990
samaradorlik	89%
Gaz iste'moli (nm ³ /soat)	85

3	Quritish barabani -2 dona		
	Quritish barabani turi	DRFLU(Q)-380	DRFLU(Q)-900
	ishlab chiqaruvchi	Xitoy XR	
	Baraban uzunligi, m	22	25
	baraban diametri, m	2,4	3,2
	Gaz pechining markasi	OILON GP-300 M-II (Finlandiya)	OILON GP-700 M-II (Finlandiya)
	quvvati, Gkal/soat	0,82-3,9	1,72-8,2
	Minimal gaz bosimi, mbar	100	20
	Maksimal gaz bosimi, mbar	360	500
	Yoqilg'i turi	metan	
	Yoqilg'i sarfi, m ³ / soat, qish	600	1200
	yoq	450	600
	Olovni yoqish paytida yoqilg'i bosimi, Kpa	.7-10	.7-10
	Quritish tamburidagi harorat, C	500-600	500-600
	Quruq vazn iste'moli, t/soat	17-28	42-75
	Barabanni quritishdan oldin konsentratining namligi, % gacha	7%	7%
	Barabanni quritgandan keyin tort konsentratining namligi, % gacha	1%	

Issiqlik-gaz ta'minoti sexi boshlig'i

KICH sexi boshlig'i

NO' AvaA sexi boshlig'i

I.Jabborov

B.Raxmatov

B.Xoliqov